

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

№ IK0042380585

1. Loyihaning turi: **Shartnoma** № 2-sonli.

2. Loyihaning nomi: Joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha shartnoma. "Vertikal Plyus" X/K, bajariladigan ta'mirlash ishlari qiymati loyiha-smeta hamda ekspertiza hujjatlariga asosan barcha soliqlar, yig'implar, ajratmalar, QQSni hisobga olgan holda jami 356 000 000 (Uch yuz ellik olti million) so'mni tashkil etadi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Quvasoy shahar Xalq ta'limi bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan va 2022-yil 21-iyun kuni tizimga kiritilgan.

4. Loyiha bo'yicha taklif: Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

XULOSA:

Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



F.Jumaboyeva

Joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha
SHARTNOMA № 2

2022-yil 22-iyun

Quvasoy shahri

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi xamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi Quvasoy shahar xalq ta'limi bo'limi nomidan bo'lim mudiri I.Muminov (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) birinchi tomondan va o'z Nizomi asosida ish yurituvchi "Vertikal Plyus" X/K (keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb ataladi) nomidan rahbar I.Burxanov ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI.

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga asosan Farg'ona viloyati, Quvasoy shahridagi 8-sonli maktab binosini joriy ta'mirlashni loyiha-smeta hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI.

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari qiymati loyiha-smeta hamda ekspertiza hujjatlariga asosan barcha soliqlar, yig'imlar, ajratmalar, QQSni hisobga olgan holda jami 356 000 000 (Uch yuz ellik olti million) so'mni tashkil etadi.

2.2. Zaruriy asoslar mavjud bo'lganda «Buyurtmachi» va «Pudratchi»ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

3. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

3.1. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari to'liq bajarilgandan so'ng, o'zaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlar qiymati uchun «Buyurtmachi» pul o'tkazish yuli bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. «Buyurtmachi» oldindan shartnoma umumiy summasini 30 % miqdorida avans to'lovini «Pudratchi» hisob raqamiga o'tkazib beradi. Keyingi hisob-kitoblar hakikatda bajarilgan ishlar hajmiga qarab, avans mablag'larini chegirgan xolda amalga oshiriladi.

4. ISHLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLARI

4.1. «Buyurtmachi» tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 15 ish kuni muddat ichida «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari yakunlanishi shart.

4.2. «Pudratchi» bajariladigan ishlarni loyiha-smeta hujjatlari hamda amaldagi qurilish qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishini va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. «Pudratchi» ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda amalga oshiradi.

5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. «Pudratchi» mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarini loyiha-smeta hujjatlariga asosan to'lik hajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi. Loyiha-smeta hujjatlariga mos kelmagan ishlar «Buyurtmachi» tomonidan qabul qilinmaydi va shartnoma shartlari bajarilmaganligi uchun «Pudratchi»ga shartnoma shartida kelishib olingan pul mablag'lari o'tkazib berilmaydi.

5.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyiha-smeta hujjatlariga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi, hamda «Pudratchi»dan loyiha-smeta hujjatlariga mos ravishda qurilish ishlarini olib borishni talab qilishga haqli.

5.3. «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ga ta'mirlash ishlarini bajarishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratib beradi va bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan Shaki-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. «Pudratchi» bajarilgan ishlar uchun 1 (bir) yildan kam bo'lmagan muddat, o'rnatilgan jihozlar uchun 2 (ikki) yildan kam bo'lmagan muddat mobaynida kafolat beradi.

5.5. «Buyurtmachi» tomonidan tuzilgan dalolatnoma (qurilish ishlarini belgilagan talablarga mosligini tekshirish dalolatnomasi) asosida bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, «Buyurtmachi» tomonidan alohida dalolatnoma rasmiylashtiriladi va 3 kun muddat ichida «Pudratchi»ga xabar yuboriladi. «Pudratchi» tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o'z mablag'i va o'z kuchi bilan 10 kun davomida bartaraf etiladi. Bartaraf etilmagan taqdirda «Pudratchi»ga shartnoma shartida kelishib olingan pul mablag'lari o'tkazib berilmaydi hamda qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan choralar amalga oshiriladi.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

6.2. Agar «Pudratchi» tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatda boshlanmasa va yakunlanmasa, «Pudratchi» bajarilmagan ishlar qiymatining 0.5% miqdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatini 50% dan oshmasligi kerak. Penya «Buyurtmachi» tomonidan shartnoma sharti bo'yicha qurilish ishlari

yakunlanishi belgilangan kundan boshlab kechiktirilgan kun oralig'idagi muddat hisobga olingan holda bir tomonlama amalga oshiriladi.

6.3. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar o'z muddatida amalga oshirilmasa to'lanmagan summani 0.4% miqdorida har bir muddati o'tgan kun uchun «Pudratchi»ga penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiy summasi o'tkazib berilmagan mablag'lar summasini 50% dan oshmasligi kerak.

6.4. Penyalar to'lanishi taraflarni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

7. FORS-MAJOR HOLATLARI.

7.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi, tabiat xodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar, hukumat qarorlari va boshqa yengib bo'lmas kuch holatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

8. KORRUPSIYAGA QARSHI O'SHIMCHA SHARTLAR

8.1 Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'lik korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.2 Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3 Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'lik munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kyelajakda bu turdagi xarakatlarni amalga oshirishni mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi xarakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

8.4 Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

8.5 Tarfning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.



9. QO'SHIMCHA SHARTLAR.


9.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo, taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmasa «Buyurtmachi» joylashgan hududdagi iqtisodiy sud va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari tartibida hal qilinadi.

9.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararlarni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

9.3. Ushbu shartnoma 2022-yil 31-dekabrgacha tuzildi. Shartnoma ikki tomonlama imzolanib, hudud g'aznachilik boshqarmasi (bo'limi)da ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

10. TOMONLARNING HUQUQIY MANZILI VA REKVIZITLARI.

«IJROCHI»	«BUYURTMACHI»
<p>"Vertikal Plyus" Xususiy korxonasi</p> <p>Manzil: Farg'ona shahar, Xudjand 23/20 Tel: 998 73 241*95-53 X/r: 2020800004511062001 Bank nomi: "Madad Invest bank" Farg'ona f MFO:01142 Tashkilotning STIRi: 206559014 IFUT(okonx): 41202</p> <p>Raxbar: </p>	<p>Quvasoy shahar xalq ta'limi bo'limi Manzil: Mustaqillik ko'chasi 34-uy Tel./faks: +(8 73) 372 -14-04 H/R: 401722860304087092100075014 Tashkilotning STIRi: 200123030 IFUT(okonx): 97600 Quvasoy shahar G'aznachilik bo'linmasi H/R: 23 402 000 300 100 001 010 Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazi (HKKM) MFO:00014 G'aznachilik bo'linmasining STIR: 201122919</p> <p>Mudir: </p>



Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 102225 на приобретение Услуга по текущему ремонту нежилых зданий №8

Способ проведения электронный

Дата 18.06.2022

Время рассмотрения 18.06.2022 13:56

Конкурсная комиссия Кувасой шахар Халк таълими булими марказлашган хисобхона, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	MUMINOV ILXOMJON TURSUNOVICH	мудир	Кувасой шахар ХТБ
Секретарь комиссии	MANSUROVA NAZOKAT ERKINJON QIZI	Котиба	Кувасой ш ХТБ
Член комиссии	MIRZAMURATOV G'AYRATJON KAMOLIDDIN O'G'LI	Махсус таъмирлаш эксплуатация хизмати булими бош мутахассиси	Кувасой шахар ХТБ
Член комиссии	JADIGAROV KAMOLJON TURDALIYEVICH	Мудир уринбосари	Кувасой ХТБ
Член комиссии	MUMINOVA GULBAHOR XOLMATJONOVNA	Бош хисобчи	кувасой ХТБ
Член комиссии	AMETOV MUSTAFA FETIYEVICH	Бош мухандис	Кувасой ХТБ

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 18.06.2022 года № лота 102225.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф. технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 10

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту нежилых зданий
Подробное описание	Услуга по текущему ремонту нежилых зданий
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	364 060 459.00
Стартовая сумма	364 060 459.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Пудратчи корхона бажариладиган ишларга смета лойихаси асосида тайёрланган локаль расчёт хамда ишларни тугатиш муддати хамда сифатли бажарилиши тўғрисида кафолат хати (Асословчи хужжатлари билан)

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи тавсифига кўра

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"FERGANA KONSTANTIN" X K	20	Заявление	5	Экспертная		
VERTIKAL PLUS XK	20	356000000	3	Экспертная		
OOO MUKAMMAL XAMKOR QURUVCHI	20	гувохнома	0	Экспертная		

Критерий №2 Лойиҳани бажариш учун зарур бўлган 5 бирликдан кам бўлмаган кичик механизация воситаларини мавжудлиги. Изоҳ: Ижара ва лизинг асосидаги техника ижарага олинганда ижарага берувчининг кафолат хати, лизинг шарномасининг нусхаси тақдим этилади. Объектни лойиҳа смета хужжатларида кўрсатилган худудга бориб ўрганганлиги тўғрисида далолатнома(буюртмачи томонидан тасдиқланган оферта хужжати тақдим қилиниши шарт).

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи тавсифига кўра

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"FERGANA KONSTANTIN" X K	20	сведения о кадрах	5	Экспертная		
VERTIKAL PLUS XK	20	356000000	20	Экспертная		
OOO MUKAMMAL XAMKOR QURUVCHI	20	маълумот	0	Экспертная		

Критерий №3 Танловдагига ўхшаш ишларни ўз кучи билан бажариш: йилига N (N- Буюртмачи бошлангич нархнинг 50%) сўм ва ундан кўп. (ҳар бир йил 5 балл билан баҳоланади); Танлов савдодагига ўхшаш профил бўйича охириги йили ўз кучи билан бажариш. Изоҳ: Маълумотлар Танлов иштирокчиси томонидан ҳар бир объект бўйича ишлар тури бўйича тақдим этилади ва бажарилган ишлар далолатномаларининг (агар танлов иштирокчиси ёрдамчи пудратчи сифатида бўлган бўлса ҳисоб-фактура маълумотномалари) нусхалари билан тасдиқланади.

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи тавсифига кўра

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"FERGANA KONSTANTIN" X K	20	работы	0	Экспертная		
VERTIKAL PLUS XK	20	356000000	20	Экспертная		
OOO MUKAMMAL XAMKOR QURUVCHI	20	1	0	Экспертная		

Критерий №4 Муддати ўтган кредиторлик қарздорлиги мавжуд эмаслиги, утган йилда 20 млн.сўм фойдаси (солиқ тўлангунга қадар) мавжудлиги, иш ҳақи фонди 20 млн. сўм, тўловга қодирлик ёки қоплаш коэффиценти 1,25 ва ундан кўп, тўловга қодирлик ёки қоплаш коэффиценти. Изоҳ: Баланс ва молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисоботлар(3 йиллик) ҳамда талабгор ташкилотга хизмат кўрсатувчи банк томонидан картотека К-2 да қарздорлиги мавжуд эмаслиги ҳамда Баланс ҳисоботларининг нусхалари тақдим этилиши шарт. Тўловга қодирлик ёки қоплаш коэффиценти. нусхалари тақдим этилиши шарт

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи тавсифига кўра

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"FERGANA KONSTANTIN" X K	20	Дебиторская кредиторская задолженность	0	Экспертная		
VERTIKAL PLUS XK	20	356000000	3	Экспертная		
OOO MUKAMMAL XAMKOR QURUVCHI	20	гувохнома	14	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
VERTIKAL PLUS XK	364 060 459.00	356 000 000.00	15.06.2022 12:54:07	19.02
OOO MUKAMMAL XAMKOR QURUVCHI	364 060 459.00	338 576 226.00	15.06.2022 16:25:21	20.00
"FERGANA KONSTANTIN" X K	364 060 459.00	363 000 000.00	14.06.2022 16:07:56	18.65

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
VERTIKAL PLUS XK	46	19.02114	65.02114
OOO MUKAMMAL XAMKOR QURUVCHI	14	20	34
"FERGANA KONSTANTIN" X K	10	18.65434	28.65434

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 102225 от 18.06.2022 года на приобретение Услуга по текущему ремонту нежилых зданий №8 определила победителем:

VERTIKAL PLUS XK
206559014

и резервный исполнитель: OOO MUKAMMAL XAMKOR QURUVCHI (301660563)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	MUMINOV ILXOMJON TURSUNOVICH	Согласен	
Член комиссии	MIRZAMURATOV G'AYRATJON KAMOLIDDIN O'G'LI	Согласен	
Член комиссии	JADIGAROV KAMOLDIN TURDALIYEVICH	Согласен	

Член комиссии	MUMINOVA GULBAHOR XOLMATIIONOVNA	Согласен	
Член комиссии	АМЕТОВ MUSTAFA FETIYEVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП